

AFĠONISTONDA HOZIRGI ZAMON O‘ZBEK SHOIRLARINING IJODI

Fazlulloh Hoshemiy

Afġoniston fuqarolarini o‘qitish t‘lim markazi

O‘zbek tili va adabiyoti yonalishi talabasi

Eshpulatova Xadicha Muradovna

Afġoniston fuqarolarini o‘qitish t‘lim markazi

O‘zbek tili va adabiyot fani katta o‘qituvchisi

Annotatsiya: *Maqolada Afġonistondagi o‘zbek shoirlarining Vatanga, xalqqa qilgan xizmati, ayol obrazi orqali ularning mavqeyi va ravnaqini dunyoga yoyish haqida aniq manbalarga tayangan holda ma‘lumotlar berilgan.*

Kalit so‘zlar: *iste‘odli, iztirobli, ziyoli, muxammas, masnaviy, aruz, ruboiy, mubolag‘a, Turkiston, ijtimoiy, zo‘ravonlik, hissiy holat, ehtirom, Shafiqa Yorqin, Shugufa Orzu, Zulayxo Amoni, Fareda Aniq, Fahiyima Sultoni.*

XIX-XX asrda shimoliy Afġonistonning o‘zbek yozuvchi va shoirlari o‘zbek adabiyoti taraqqiyotiga katta hissa qo‘shganligi barchamizga ma‘lum. Bu ist‘odli shoirlar mumtoz an‘anaviy va zamonaviy tarzda yozilgan turli xil sh‘rlari bilan bir qatorda detektiv xarakterdagi sh‘rlari bilan ham Turkiston o‘zbek adabiyotining kerativ rivojiga sezilarli ulush bo‘lib qo‘shilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi.

Darhaqiqat, Afġoniston shimolidagi o‘zbek shoirlarining haqqoniy so‘zi, chuqur ma‘noli she‘rlariga ishonch, hurmat-e‘tibor va ehtirom azaldan yuksak darajaga ko‘tarilganligi yaqqol ko‘rinib turibdi.

Ulardan biri Shafiqa Yorqin Muhammad Qosim (Qozizoda) qizi. 1955-yilda Foryob viloyatining ziyoli xonadonida tug‘ilib o‘zining sermazmun va sevimli sh‘rlari bilan butun Afġoniston xalqining, nafaqat Afġoniston, balki, O‘zbekiston va Eron xalqining qalblaridan joy olgan. Ushbu shoiraning oliy maqsadlari, bugungi dardli va iztirobli hayot, taqdiri va kelajagini yaqindan biladigan insonlar sifatida jamiyatimizdagi o‘rni va ta‘siri beqiyosdir. Shu zamon ijtimoiy-iqtisodiy ahvoli, madaniyati haqida jasorat bilan qo‘liga qalam olib, xalq dardini, yuragidagi jafoni o‘z asarlarida aks ettirdi. Bundan tashqari, 49 nafar yosh shoirlar o‘zbek tilida asarlar yarata boshladi.

Jumladan, Shugufa Orzu, Zulayxo Amoni, Fareda Aniq, Fahiyima Sultoni (Xokildi), Sayyora Samadi, Zahra Korgar, Hangoma Murodi, Hamosa Navo Azizi shular jumlasidandir. Ushbu shoirlar aruz vaznida she‘rlar yaratib, muxammas va masnaviylar ham yaratdilar. Shafiqa Yorqin "Olisdan bir she‘r" (129 bet Kobul maslaki afġon nashriyotida), "Uygo‘q tushlar" (108 betli Kobul Al-Azhar nashriyotida) kabi asarlarini yozdi.

Ushbu shoirlardan yana biri Jamila Asroning "Bahor orzusida" (milodiy 2009/ hijriy 1388 va 42 betli) nomli asari Yetti son nomli chopxonasida nashr etildi.

Kabro Keyvan (m 2008/h 1387-yillarda) Mirzo Ulug‘bek bosmaxonasida 153 varaqda bosilgan dariy va o‘zbek tilidagi she‘rlarini o‘z ichiga olgan “Oltin toj” nomli she‘riy kitobini nashr ettirdi.

Hozirgi o‘zbek adabiyotida ayollar to‘g‘risidagi she‘rlar mavzusini ko‘rib chiqsak, mavzular ko‘lamining kengligiga duch kelamiz. Bu she‘rlarda tabiat tasviri, mehr-muhabbat, Onalik tuyg‘usi, vatanparvarlik, xayriya, nasihat va axloq, tinchlik va urush, ijtimoiy tengsizlik, zo‘ravonlik, ayollarning tartibsiz ahvollarini ifodalash va boshqa ijtimoiy masalalar keng o‘rin olgan, lekin albatta sevgi mavzusi, shoirning his-tuyg‘ularini hissiy holatlarni ifodalash birinchi o‘rinni egallaydi.

Ayol shoirlarimizdan biri Sayyora Rahmoni Doktor Abdul Sattor Samadini qizi 1991-yil Faryobda tug‘ilgan va u Balx bilim yurtida til va adabiyot yo‘nalishini tamomlagan. Hozirda Fransiyada magistraturada tahsil olmoqda. U ko‘p she‘rlar yozgan hamda she‘rlarining ko‘p qismini aruz vaznidagi she‘rlar tashkil etadi.

Masalan:

Bir chanqoqlik lazzati qadar,
So‘gindim hech so‘ginmagan onalarni bu on.
Menga tanishdir salqinliklar,
Dalalarda yurgan, alvon bir sevgi kabi,
Allalaydi quchib ruhimni va o‘zimni tan olmay,
O‘zim bilan tortishaman men yana,
O‘zimning singanimni ko‘rmayapman men yana.

Xulosa qilib aytganda, Afg‘onistonda yashab ijod etayotgan ayol shoirlar o‘z yurtining ravnaqi va rivojlanishida o‘z hissalarini qo‘shib, yangidan yangi asarlar yaratish bilan birga, dunyo adabiyotida ayol obrazi orqali ularning hayotdagi o‘rni va mavqeyini ko‘rsatib bermoqdalar. Zero, Jannat onalar oyog‘i ostidadir, degan hadisi sharif bejizga emasdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA SAYTLAR:

1. Afg‘oniston professional matbuoti, Kobul, 2009 Yorqin, Shafiqa.
2. Al-Ashhaq Toshlar, she‘rlar to‘plami, Azhar press, peshovar: 2010-yil Itsar Jamila.
3. Bahor Orzusida, she‘rlar to‘plami, Shafiqa Yorqin, Afg‘oniston qalam assosatsiyasi, Afg‘oniston professional matbuoti, Kobul: 2009-yil.
4. Kivan, Kubro. Professor Hidoyatulloh g‘amxo‘rligidagi she‘rlar to‘plami, Mirzo Ulug‘bek Matbuoti, Balx: 2008-yil.
5. Veb-saytlar va Facebooklar.